

O'ZBEKISTONDA ETNOGRAFIK TURIZM RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA BUGUNGI HOLATI

Radjabova Mehriyo Axmadvna

*Buxoro Davlat Universiteti "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti Magistrant 2 – bosqich
talabasi m.a.radjabova@buxdu.uz*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada etnografik turizm mohiyati, etnografiyaning turizmdagi ahamiyati, O'zbekistonning etnografik turizm salohiyatiga ega shaharlari, ularda etnografik turizm rivojlanish bosqichlari va bugungi holati ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar : *turizm, sayyohlik, etnografiya, etnografik turizm, turistik salohiyat, urf-odat, qadriyat, tarix.*

KIRISH

Hozirgi kunda turizm jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanib borayotgan, shuningdek eng serdaromad tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari qatorida O'zbekiston ham so'nggi bir necha yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish, sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida alohida shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunga misol qilib muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyening quyidagi jumllarini keltirish mumkin:

“O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti – samarali ishlab chiqarish bilan birga xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojiga asoslangan iqtisodiyot bo'lmog'i zarur.

Bu muhim vazifa turizmni rivojlantirish, O'zbekistonni jahon turizmining jozibali markaziga aylantirish, yurtimizni sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan davlatlar qatoriga kiritishni ko'zda tutadi.

Turizm ravnaqi uchun maxsus iqtisodiy hududlarni tuzish, turistik klasterlarni yaratish, sohaga strategik sheriklarni jalb qilish, sayyohlik infratuzilmasi va turizm sanoatini jadal rivojlantirish, hududlarning sayyohlik salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va uni jahon bozorlariga olib chiqish borasidagi faoliyatimizni jadal rivojlantiramiz.”

Yurtboshimizning yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrlaridan ham ko'rish mumkinki, haqiqatdan ham yurtimizda turizmni rivojlantirishga bo'lgan xohish nihoyatda katta va olib borilayotgan , shuningdek amalga oshirilishi ko'zda tutilgan barcha chora-tadbirlar ushbu sohani takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun O'zbekiston barcha imkoniyatlarga ega desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sababi, O'zbekiston azal-azaldan dunyo e'tiborida. O'zbekiston serquyosh o'lka, mehmondo'st xalq, takrorlanmas ta'mga ega oshxona, madaniy meroslarga boy maskan hamda necha ming yillik o'chmas tarixga ega mamlakat sifatida dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", A.X.Doniyorov, O.Bo'riyev, A.A.Ashirovning "Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi" o'quv qo'llanmasi kabi ilmiy tadqiqot materiallaridan foydalanildi.

Qo'llanilgan metodlar.

Maqolada O'zbekistondagi etnografik turizm holati va salohiyati o'rganildi. Shuningdek, tadqiqot davomida analiz, statistika va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism.

Turizm butun dunyoda keng rivojlanib borayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizm rivojlangani sari yangi sayyohlik maskanlari ham ortib bormoqda. Shuningdek, turizm iqtisodiyotning drayveri hamda jamiyatni modernizatsiya qilishning ma'lum bir mexanizmi bo'lishi mumkin.

Turizm insonlarga dam olishni o'zga xalqlarning turmush tarzi, tarixi, madaniyati haqidagi bilimlar bilan birlashtirishga zamin yaratadi.

Dunyoning turfa xilligini o'z ko'zi bilan ko'rish, eshitish, o'rganish, boshqa xalqlar madaniyatining o'ziga xos jihatlarini his qilish turizmning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. O'zga mamlakat yoki mintaqaning hayoti, turmush tarzi, an'analari, udumlari bilan tanishish insoniyat ma'naviy olamini boyitadi.

So'nggi yillarda turizm dunyo bo'ylab insonlar ongida yangicha fikrlashga zamin yaratmoqda. Endilikda insonlar uzoq kutilgan yozgi ta'tilni kutishmaydi, aksincha yil davomida arzon ta'tilga e'tibor qaratishmoqda, ya'ni ilgari odamlar yil bo'yi ishlab faqatgina yozgi ta'tilda o'zlariga dam olishni ravo ko'rgan bo'lsalar hozirda esa vaqt va zamon talabidan kelib chiqqan holda masofaviy ishlash yoki ta'lim imkoniga egalar, bu esa yilning istalgan paytida sayohat qilish imkonini beradi, xohish va mablag' bo'lsa kifoya.

Insonlarni bu kabi yangicha fikrga kelishlari turizmning bir toifadan ikkinchi toifaga o'tganligidan dalolat beradi. Bu esa turizmning bir qancha soha va hududlarga bo'linishi jarayonining boshlanishi bo'ldi va etnografik turizmning rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Bugungi kunda insonlar o'z-o'zini anglash, atrofidagi dunyoni bilish va shaxsiy rivojlanishga intilmoqdalar, buni esa madaniyat sohasidagi bilimlarsiz amalga oshirishni tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda "An'anaviy xalq madaniyati" tushunchasi mohiyatini tushunib yetish etnik taraqqiyotning ko'p asrluk davrida shakllangan xalq amaliy san'atining turli shakllarini anglash bilan belgilanadi.

Xalq madaniyatini bilish maqsadida etnografik turizm madaniy qadriyatlarga, jumladan, ilm-fanning tarix, arxitektura, adabiyot, arxeologiya kabi sohalariga, shuningdek, tarixiy shaharlar, qishloq aholi punktlari, xalq sayillari, festival va bayramlarga bo'lgan cheksiz qiziqishga asoslanadi.

O'zbekistonda ham e'tiborga molik turizm turlaridan biri bu etnografik turizm hisoblanadi. Xalqimiz tarixi juda qadim va katta davrni o'z ichiga oladi. U xilma-xil ijtimoiy voqea va hodisalar, turli xalqlar, har xil diniy va madaniy qatlam o'choqlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, o'zbek xalqi azal-azaldan ko'p qardoshli xalq hisoblanadi. Yurtimizda necha asrlar davomida turli millat vakillari ahil-inoq yashab kelishgan va bugungi kunda ham O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilib kelmoqda, bu esa o'z navbatida yurtimizdagi bag'rikenglikdan darak beradi. Hech shubhasiz, har bir millat o'zidan o'chmas iz qoldiradi, ularning an'ana va urf-odatlarini, madaniyatini asrlar davomida o'zbek xalqi madaniyatini va urf-odatlarini bilan chambarchas bo'lib kelmoqda. Insoniyat bor ekan, u albatta, o'zining ibtidosiga qiziqadi, ya'ni, ajdodlari qay yo'sinda yashagani, ularning hayot tarzi, madaniyatini va qadriyatlarini haqida bilishga intiladi.

Madaniyatning globallashuvi sharoitida turli xalqlarning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylash, qayta tiklash muammolari tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

Etnografiya esa xalqni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Etnografiya – tarixiy fan, u jahondagi barcha xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlarini, moddiy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq an'analarni, ularning katta-kichikligi, irqi, ijtimoiy tuzumi, qoloq yoki rivojlangan bo'lishidan qat'i nazar, teng, bab-baravar o'rganuvchi muhim ilm sohasi.

Etnografiya – dastlab hozirgi xalqlarning kelib chiqishi va shakllanishi, joylashishi, mashg'uloti, tarixiy-madaniy munosabatlari, moddiy va maishiy turmushi, urf-odatlarini, madaniyatini va milliy xususiyatlarini tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganadi.

Etnografik turizm yurtimizda turizm biznesining jadal rivojlanayotgan turlaridan biri sanaladi. Turizmning ushbu turi o'z ichiga milliy madaniyatni, uning bugungi kunini tushunish uchun muhim bo'lgan maskanlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi, shuningdek turli xalqlarning madaniy o'ziga xosligini yaqindan tasavvur qilish imkonini beradi, bu faqatgina milliy bayram va festivallarga tashrif buyurish bilangina cheklanib qolmaydi.

Etnografik turizmning maqsadi muayyan bir xalq, millatning oddiy turmush tarzi, an'ana va urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish va millatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, etnografik turizm xalq hayotini "ichkaridan" ko'rish, ularning qadriyatlarini, tarixi, marosimlari, tili, afsonalarini qisqich his qilish imkoniyatini beradi.

Yurtimizda har bir viloyatning o'z turistik salohiyati mavjud. Qadimdan O'zbekistonning ko'plab shaharlari ilm-fan o'chog'i, madaniyat markazi bo'lib kelgan. Har bir viloyatning o'z turmush tarzi, hunarmandchiligi, va o'ziga xos madaniyatini, urf-odatlarini mavjud. Bir qancha viloyatlarni ko'rib chiqsak:

Buxoro. Ipak yo'li markazida joylashgan shahar qadimdan uzoq yillar davomida savdo-sotiq, ilm-fan, din markazi bo'lib kelgan. Buxoro O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan farqli o'laroq fors-tojik tilida so'zlashadi. Buxoro shahri Buxoro amirligi,

Buxoro xonligi va Somoniylar saltanatining poytaxti vazifasini o'tagan, bundan tashqari Imom al-Buxoriy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk shaxslarning vatani hisoblanadi. Buxoroda 140 ga yaqin me'moriy yodgorlik mavjud. UNESCO Buxoroning tarixiy markazini ko'plab masjid va madrasalarni "Jahon merosi" ro'yxatiga kiritdi.

Muhammad ibn Jafar Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoroning bir qancha nomlari borligi, ulardan biri "Numichkat", boshqa biri "Bumiskat" ekanligi haqida, shuningdek Buxoroning arab tilida ham 2 ta nomi ("Madinat al Sufriya" – mis shahri, "Madinat al Tujar" – savdogarlar shahri) borligi haqida ma'lumot bergan. Lekin, ular orasida eng mashhuri "Buxoro", qadimgi Xurosonda bu kabi ko'p nomga ega bo'lgan boshqa shahar mavjud bo'lmagan.

Buxoro ilm-fan, din markazi bo'libgina qolmay hunarmandchilik markazi ham hisoblanadi. Buxoroda zargarlik, zardo'stlik, temirchilik, rassomchilik kabi hunarmandchilik turlarini uchratish mumkin. Ulardan eng mashhuri zardo'zlik va zargarlik hisoblanadi. Qadimdan Buxoro tillasi juda mashhur bo'lgan va bu yerda zargarlikning ko'pgina betakror namunalaridan bahramand bo'lish, avloddan avlodga ko'chib kelayotgan zardo'z hunarmandlarni ham uchratish mumkin, shuningdek, Buxoroda 2022-yildan buyon har ikki yilda may oyida o'tkaziladigan "Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali" ham buning yaqqol misoli bo'la oladi. Ushbu festivaldan dunyoning turli burchaklaridan kelgan hunarmandlar o'z asarlarini namoyish etishlari mumkin, shu bilan birga sayyohlar tomonidan ham ushbu festivalga katta qiziqish bildiriladi.

Samarqand. Dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri, jahon sivilizatsiyasining beshigi, qadimgi So'g'diyona va Amir Temur imperiyasining poytaxti, Rim va Afina bilan tengdosh hisoblanadi.

Samarqandning betakror xalq me'morchiligi Misr, Hindiston, Xitoy, qadimgi Rim va qadimgi Yunoniston me'moriy durdonalari bilan bir qatorda bo'lib ular bilan tenglasha oladi.

Samarqand o'zining betakror tarixi, ma'naviy merosi, diniy bag'rikengligi bilan insonlarni lol qoldiruvchi zamin sanaladi. Samarqandda 100 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Bu yerda musulmon masjidlaridan tashqari, rimliklar, armanlar, yahudiylar va xristianlar uchun ibodatxonalar mavjud. Shuning uchun Samarqand "Tinchlik va do'stlik shahri" deb ham nomlanadi.

Samarqandda bugungi kunda "Sharq taronalari" xalqaro festivali o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, u yerda "El Meros" kostyumlar tarixi teatri, Chexov nomidagi rus drama teatri, Hamid Olimjon musiqali drama teatri kabi san'at namunalari mavjud.

Xorazm. Insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan voha. Zardusht, al-Xorazmiy, Beruniy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ogohiy kabi ko'plab shu sarhadda yashab o'tgan yuksak tafakkur sohiblari jahon ilm-u fani xazinasiga ilkan hissa qo'shganligini butun dunyo biladi.

Xorazm qadimdan maftunkor lazgisi, ko'kka bo'y cho'zgan minoralar, ularga ishlatilgan betakror bo'yoqlar, jo'shqin Amudaryo bo'yidagi so'lim tabiati bilan insonni o'ziga ohanrabodek tortadi.

Xorazmni "Past tekislik yer", "Oziq-ovqat mamlakati", "Unumdor yer", ayrim tadqiqotchilar esa, "Urushga moyil", "Jangovor" ma'nosida ham tahlil qilishgan. Bundan tashqari "Oriy qabilalari yeri", yoki "Xarri xalqining yeri" ma'nosini anglatadi kabi fikrlar ham mavjud.

Xalqlarning xulosasiga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak Xorazm – "xor" – quyosh, "azm"- yer, o'lka, ya'ni quyosh o'lkasi degan fikr eng ishonchlisi deb sanaladi.

Xivalik tarixchi Muhammad Yoqub Xorazmga "Yevrosiyo materigining kindigida joylashgan sehri diyor" degan fikrni beradi. Sehri deyilishining sababi, Xorazm yerlarining unumdorligi va tabiiy geografik joylashuvidadir.

XIX asrda Xorazmga sayohat qilgan Yevropa sayyohlari yozib qoldirgan manbalarida erkaklar kiyimlari haqida ma'lumotlar ham uchraydi. XIX asrning 70-yillariga kelib bu yerga kelgan olimlar mahlliy o'qimishli kishilar tomonidan Xorazm milliy madaniyati etnografiyasi va kiyim-kechaklari tarixi o'rganilgan.

Shuningdek, Xorazm haqida so'z borar ekan "Ochiq osmon ostidagi muzey" ta'rifini olgan Xiva shahri haqida gapirmay iloj yo'q. Xiva o'zining arxitekturasi bilan O'zbekistonning boshqa shaharlaridan farq qiladi, ushbu shaharda asosiy tarixiy yodgorliklar shahar ko'rinishida Ichan qal'ada joylashgan.

Yuqoridagi ushbu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Hech shubhasiz, O'zbekiston takrorlanmas tarixga ega va har bir viloyatda etnografik turizmni rivojlantirishning ko'plab imkoniyatlari mavjud. Ayni paytda O'zbekistonda turizmning bu turiga bo'lgan e'tibor yuqori va uni rivojlantirish uchun bir qancha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Jumladan Xivada sentabr oyida o'tkaziladigan "Xalqaro etnosport" festivali, Buxoroda esa qurilishi amalga oshirilayotgan "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki yurtimizda etnografik turizmga bo'lgan e'tiborga yaqqol misol bo'la oladi.

Xulosa va takliflar.

Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm jahon iqtisodiyotining jadallik bilan rivojlanib borayotgan, shu bilan birga O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri hisoblanadi.

Bugungi kunda turizmning ko'plab tarmoqlari mavjud va ular orasida etnografik turizmni O'zbekistonda rivojlantirish va buning natijasida sayyohlik salohiyatidan yanada oshirish potentsiali yuqori o'rinda turadi.

Ko'hna diyor bo'lmish O'zbekistonga azal-azaldan dunyo xalqlarining qiziqishi mavjud. O'zbek xalqining takrorlanmas tarixi, qulay geografik joylashuvi, xalqining mehmondo'stligi, samimiyati, ochiqko'ngilligi, turfa xil urf-odatlari, to'y-marosimlari

insonlarni o'ziga maftun qilmay iloj yo'q. bu imkoniyatdan imkoniyatdan foydalangan holda O'zbekistonda etnografik turizmni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnografik turizmni rivojlantirish mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini oshirib, yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizmning ushbu turini rivojlantirishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- barcha ommaviy axborot vositalari : televideniye, radio, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlarida doimiy reklamalarni joylab borish;

- O'zbekiston turistik saytlariga etnografik turizmni namoyish etib beruvchi videoroliklar joylashtirish;

- turfirmalar bilan kelishilgan holda aynan etnografik turizmga mo'ljallangan turpaketlarni yaratish;

- mamlakatimiz viloyatlarining sayyohlik salohiyatidan kelib chiqqan holda har bir viloyatda "Turizm mahallasi" ni tashkil etish;

- O'zbekistonda etnografik turizm moddiy namunalari (milliy kiyim-kechak, qadimgi uy-ro'zg'or anjomlari, mehnat qurollari, arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar va boshqalar) mujassamlashgan muzeylar barpo etish;

- milliy festivallar o'tkaziladigan paytga moslab turpaketlar yaratish;

- festivallarda milliy urf-odatlarini sahnalashtirish;

- har bir mehmonxona va turistik umumiy ovqatlanish korxonalarida "Etnografik turizm burchagi" ni yaratish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2022; B.168
2. Doniyorov A.X, Bo'riyev O', Ashirov A.A, "Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi". Toshkent "Yangi nashr", 2011; 9-25.
3. <https://www.gazeta/uz>
4. <https://lex.uz>
5. <https://zarfestival.uz>
6. <https://daryo.uz>
7. <https://kun.uz>
8. <https://www.sayyoh.com/sayyohlik-yonalishi/samarqand/>